



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 196 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelsbayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdamaova Muazzamxon Xabibullo qizi	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
Sharipov Hayotjon Safarovich	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
Baratova Madinaxon Paxridinovna	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....	92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане	97
Фадлиева Амина Ильхамовна	
Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari	102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li	
Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari	112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari	116
Xasanov Javohir Muxtorovich	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	125
Malikova Madina Abduraxmon qizi	
Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach	129
Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna	
Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood	132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi	
Developing Academic Writing Skills Through Digital Media Tools	137
Tog'ayeva Muattar Bahodir qizi	
Xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	144
Beknazarova Nigina Zarip qizi	
Sun'iy intellekt: madaniy vositachimi yoki madaniy "darvozabon"mi? chet tili o'qituvchilarini tayyorlash uchun tanqidiy nazariy asos	148
Jakbarova Nasibaxon Po'latjonovna	
Talabalarda impostor fenomeni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning psixologik tadqiqotlarda o'rganilganlik holati	153
Kamilova Gulzoda	
Pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya	157
Ahmedova Nilufar Farxodovna, Mamatqulova Dildora Farxodovna	
Inklyuziv ta'lim muhitida interfaol metodlar orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish	161
Shukurullayeva Madina	
Jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik va me'yoriy-huquqiy asoslari	168
Ahmedov Akrom Abzalovich	
The Relationship Between Social Media Use for English Language Learning, Student Perceptions, and Learning Outcomes: Evidence from University Students in Uzbekistan	174
Akhad Akhmedov	
Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlari (Namangan viloyati misolida) ..	177
Boyutayeva Mamura Uroyimovna	
Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida	183
Mirxaliqov Bobur Zikrilloevich	
Sharq va G'arb pedagogika tarixidagi ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlar	188
Qodirova Nigora Farhodovna	
Sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi mexanizmlari va kompleks samaralari: tizimli adabiyotlar tahlili	193
Sharapov Atabek Gayrat uli	



KO'P TARMOQLI IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

Mirxaliqov Bobur Zikrilloyevich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga oid nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Ijtimoiylashuvning bolaning shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatga moslashuvdagi ahamiyati yoritilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvining asosiy bosqichlari hamda ushbu jarayonga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tavsiflangan. Bolaning dastlabki ijtimoiy tajribani egallashi, ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishi va shaxslararo munosabatlarni shakllantirishida oilaning yetakchi o'rni asoslab berilgan. Shuningdek, alohida yordamga muhtoj bolalarning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga pedagogik-psixologik yondashuvni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiylashuv, imkoniyati cheklangan bolalar, maktabgacha yosh, psixologik xususiyatlar, psixik rivojlanish, ijtimoiy xulq-atvor, "Men" konsepsiyasi, idrok, tafakkur, ijtimoiy tajriba, ontogenez, ijtimoiy munosabatlar.

Abstract: This article analyzes theoretical approaches to the socialization of preschool children with disabilities. It examines the role of socialization in children's personality development and adaptation to the social environment. The main stages of socialization in preschool children and the socio-psychological factors influencing this process are described. Particular emphasis is placed on the leading role of the family in children's acquisition of initial social experience, internalization of norms of social behavior, and development of interpersonal relationships. The article also discusses specific aspects of psychological and pedagogical approaches to children requiring special support, taking into account their individual and psychological characteristics.

Key words: socialization, children with disabilities, preschool age, psychological characteristics, mental development, social behavior, self-concept, perception, thinking, social experience, ontogenesis, social relationships.

Аннотация: В статье анализируются теоретические подходы к процессу социализации детей дошкольного возраста с ограниченными возможностями здоровья. Раскрывается значение социализации в становлении личности ребёнка и его адаптации к социальной среде. Охарактеризованы основные этапы социализации детей дошкольного возраста, а также социально-психологические факторы, влияющие на данный процесс. Обоснована ведущая роль семьи в приобретении ребёнком первоначального социального опыта, усвоении норм социального поведения и формировании межличностных отношений. Особое внимание уделено специфике организации психолого-педагогического подхода к детям, нуждающимся в особой помощи, с учётом их индивидуальных и психологических особенностей.

Ключевые слова: социализация, дети с ограниченными возможностями здоровья, дошкольный возраст, психологические особенности, психическое развитие, социальное поведение, Я-концепция, восприятие, мышление, социальный опыт, онтогенез, социальные отношения.

KIRISH

Globallashuv sharoitida ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jamiyatning uzluksiz yangilanishi va barqaror rivojlanishida shaxsning ijtimoiylashuvi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs jamiyatda shakllangan ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar, xulq-atvor namunalari va munosabatlar tizimini o'zlashtirib, ijtimoiy hayotning faol subyekti sifatida shakllanadi. Shu nuqtai

nazardan, jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan tarbiyaviy ta'sirlar ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda bolalarning, jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning sifatli maktabgacha ta'lim olishi hamda ijtimoiy muhitga moslashishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-sonli "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan "Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida"gi nizom tasdiqlangan ^[1].

Mazkur normativ-huquqiy hujjatda ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning asosiy yo'nalishlari belgilangan. Ushbu faoliyatning muhim maqsadlaridan biri bolalarning emotsional, ijtimoiy va intellektual rivojlanishi uchun qulay pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, ularda ijobiy shaxsiy sifatlar, ijtimoiy ko'nikmalar va moslashuvchan xulq-atvorni shakllantirishdan iborat.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eshitish va ko'rishda og'ir nuqsonlari bo'lgan, psixik rivojlanishida kechikish kuzatiladigan, intellektual rivojlanishida o'ziga xos ehtiyojlari mavjud hamda tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalarga ularning individual rivojlanish imkoniyatlari va alohida ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya hamda korreksion-pedagogik yordam ko'rsatiladi. Bunday yondashuv bolalarning mavjud imkoniyatlarini rivojlantirish, ularning atrofdagilar bilan samarali muloqotini shakllantirish va ijtimoiy muhitga moslashuvini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, mazkur nizomda belgilangan tashkiliy, pedagogik va korreksion mexanizmlar alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning ijtimoiylashuv jarayonini tizimli va kompleks tashkil etish uchun muhim me'yoriy asos yaratadi. Bunda ta'lim-tarbiya, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, korreksion-rivojlantiruvchi faoliyat hamda oila bilan hamkorlikning o'zaro uyg'unligi bolaning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fransuz sotsiologi G. Tardning nazariy qarashlariga ko'ra, har bir individda "ijtimoiy fakt" mavjud bo'lib, u faqat alohida shaxsning individual ong faoliyati doirasida emas, balki individlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va ijtimoiy aloqalar jarayonida shakllanadi. Olim ijtimoiy xulq-atvor modelini shaxslararo munosabatlar bilan uzviy bog'liq holda talqin etadi. Uning fikricha, ijtimoiy xulq-atvorning shakllanishida taqlid mexanizmi muhim o'rin tutadi: individ boshqa shaxslarning xatti-harakatlari, munosabatlari va xulq-atvor namunalarini o'zlashtirish orqali ijtimoiy tajribaga ega bo'ladi. Shu sababli shaxsning rivojlanishi va ijtimoiylashuvini uni o'rab turgan ijtimoiy muhit hamda boshqa individlar bilan o'zaro munosabatlaridan ajratilgan holda o'rganish mumkin emas ^[5].

Imkoniyati cheklangan bolalar shaxsining ijtimoiylashuvi jamiyatda qabul qilingan bilimlar, qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar, xulq-atvor qoidalari va munosabatlar tizimini o'zlashtirish orqali ijtimoiy hayotga bosqichma-bosqich integratsiyalashuv jarayonidir. Ushbu jarayon bolaning nafaqat ijtimoiy muhitga moslashishini, balki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy tajribani egallash, o'z xatti-harakatlarini boshqarish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish kompetensiyalarini shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Bolalarning maktabgacha yosh davridan boshlab jamiyat va ijtimoiy guruhlarda qabul qilingan me'yorlar, qadriyatlar hamda xulq-atvor talablarini o'zlashtirib borishi ularning keyingi ijtimoiy moslashuvi uchun muhim psixologik-pedagogik asos yaratadi. Ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarda mustaqillik, ijtimoiy faollik, samarali muloqot, muammoli vaziyatlarda maqbul qaror qabul qilish hamda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni konstruktiv tarzda bartaraf etish ko'nikmalarini erta yoshdan rivojlantirish ularning kelgusida mustaqil hayotga tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning shaxs sifatida shakllanishi va ijtimoiy rivojlanishini tadqiq etishda "ijtimoiylashuv" tushunchasi muhim ilmiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiylashuv jarayonida bola nafaqat jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq-atvor namunalari, ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi, balki ijtimoiy muhit bilan faol o'zaro munosabatga kirishadi. Mazkur o'zaro ta'sir natijasida uning atrof-muhit, jamiyat va shaxslararo munosabatlar haqidagi tasavvurlari kengayib, ijtimoiy tajribasi boyib boradi. Shu bilan birga, bolada o'z "Men"ini anglash, o'z imkoniyatlari va individual xususiyatlarini idrok etish jarayoni kechadi hamda "Men" konsepsiyasi bosqichma-bosqich shakllanadi.

Bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy ijtimoiylashuv institutlari sifatida oila, tengdoshlar guruhi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalarini ko'rsatish mumkin. Ular orasida oila birlamchi ijtimoiylashuv muhiti sifatida alohida ahamiyatga ega. Aynan oilada bola dastlabki ijtimoiy tajribani egallaydi, shaxslararo munosabatlar tizimiga kirishadi, muloqot va xulq-atvor me'yorlarini



o'zlashtiradi hamda jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar bilan tanishadi. Shu jihatdan, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvida oilaning tarbiyaviy va ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari muhim o'rin tutadi.

T. Parsonsning nazariy qarashlariga ko'ra, ijtimoiylashuvning asosiy vazifalaridan biri individning mavjud ijtimoiy tizimga moslashishi va jamiyatda belgilangan ijtimoiy rollarni o'zlashtirishidir. Olim ijtimoiylashuv jarayonida oila va ta'lim institutlarining o'rniga alohida e'tibor qaratib, ularni shaxs tomonidan ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor modellarini o'zlashtirishning muhim mexanizmlari sifatida talqin etadi^[4].

Imkoniyati cheklangan ayrim bolalarda shaxslararo munosabatlarni o'rnatish, tengdoshlari bilan samarali muloqot qilish, o'z xatti-harakatlarini boshqarish hamda kommunikativ o'zaro ta'sirni tashkil etishda muayyan qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Bunday holatda oiladagi sog'lom psixologik muhit, ota-onalarning bolaga nisbatan qo'llab-quvvatlovchi munosabati va oila a'zolari o'rtasidagi konstruktiv muloqot bolaning ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli bolaning individual xususiyatlari va alohida ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda oila bilan tizimli psixologik-pedagogik hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur.

G. Terri, J. Peydj, B. Tomas va boshqa tadqiqotchilar ijtimoiylashuvni shaxsning oila va jamoa bilan ijtimoiy aloqalarni o'rnatishi hamda tegishli ijtimoiy rollarni o'zlashtirishi bilan bog'liq jarayon sifatida talqin qiladilar^[3]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, bolaning ijtimoiylashuvida ijtimoiy muhit, ayniqsa, uning birlamchi mikromuhiti hisoblangan oila alohida ahamiyat kasb etadi. Oila bolaning ijtimoiy tajribasi, qadriyatlar tizimi, muloqot madaniyati va xulq-atvor modellarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlashda ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikni samarali tashkil etish muhim pedagogik-psixologik vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday hamkorlik pedagog, psixolog, korreksion pedagog va ota-onalarning o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyatini ta'minlab, bolaning ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ ko'nikmalari, mustaqilligi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

TADDIQOT METOLOGIIYASI

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy pedagogik maqsadi alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning individual imkoniyatlari, rivojlanish xususiyatlari va mavjud ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur pedagogik, psixologik hamda korreksion-rivojlantiruvchi shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Bunday ta'lim muhitida bolaning jismoniy, intellektual, emotsional, ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishi o'zaro uzviy bog'liq holda qo'llab-quvvatlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tashkilotlarda pedagogik jarayon faqat bolaga muayyan bilim va ko'nikmalarni o'rgatish bilan cheklanmay, balki uning mavjud imkoniyatlarini aniqlash, rivojlanishidagi qiyinchiliklarni imkon qadar korreksiylash va kompensatsiyalash, mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish hamda ijtimoiy muhitga moslashuvini ta'minlashga yo'naltiriladi. Shu jihatdan, ta'lim-tarbiya jarayonida individual va differensial yondashuv, korreksion-rivojlantiruvchi metodlar, maxsus pedagogik texnologiyalar hamda psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan kompleks foydalanish talab etiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning rivojlanish darajasi, bilish jarayonlari, kommunikativ imkoniyatlari, emotsional-irodaviy holati va ijtimoiy ko'nikmalari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli pedagogik faoliyat bolaning mavjud qiyinchiliklariga emas, avvalo, uning rivojlanish imkoniyatlari va saqlangan funksiyalariga tayangan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bunda bolaning idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq kabi bilish jarayonlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, o'z-o'ziga xizmat qilish, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, muloqotga kirishish, o'z xatti-harakatlarini boshqarish va turli ijtimoiy vaziyatlarda adekvat munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirish ham ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyati rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'lim olishi, shuningdek, ularni tarbiyalash va reabilitatsiya qilishga qaratilgan.

Tadqiqot ishimizning asosiy mohiyati maktabgacha yoshdagi bolalarni jamiyat talablariga moslashtirish, ularning ijtimoiylashuvini ta'minlash hamda jamiyatning faol a'zosi bo'lishga tayyorlashning ilmiy-nazariy jihatlarini asoslashdan iborat. Ijtimoiylashuv jarayonida tarbiyaning o'zni alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni muayyan bosqichlarda namoyon bo'ladi (1-rasm).



1-rasm: Maktabgacha yoshdagi bola ijtimoiylashuvi bosqichlari


Maktabgacha yosh davrida bolalarning bilish jarayonlarining jadal rivojlanishi ularning faol ijtimoiylashuviga turtki beradi. Ijtimoiylashuv va individuallashuv darajasining oshishi bolaning ijtimoiy aloqalari kengayishi hamda uning qarashlari o'zgarishi bilan bog'liq holda kechadi. Uch yoshgacha bo'lgan davrda bolalarning ijtimoiylashuvi va individuallashuvi, asosan, boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish va o'zlashtirish shaklida namoyon bo'ladi. Uch yoshga kelib, bola o'zining "Men"ini anglay boshlaydi, o'zini tan olish va o'zini belgilashning dastlabki belgilari paydo bo'ladi, "Men va boshqalar" munosabatiga kirishadi hamda insoniy muloqot me'yorlarini o'zlashtirib boradi. Olti-yetti yoshdagi bolalar esa atrofdagi ijtimoiy muhit, undagi munosabatlar va hodisalarni tahlil qilish hamda baholashga intiladilar.

Shaxs sifatida rivojlanib borayotgan bolada ijtimoiy tajriba xatti-harakat va muloqot shakllarini o'zlashtirish, o'zining jamiyatdagi o'rnini anglash, o'zini boshqalar o'rniga qo'ya bilish hamda atrof-muhitga nisbatan mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishga tayyorlik orqali namoyon bo'ladi. Bunday qarashlarning shakllanishi bolaning ijtimoiy rivojlanish jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Bolalarda faoliyat turlarining kengayishi, jamiyatga nisbatan munosabatning shakllanishi, o'zlikni va o'zini o'zi anglash hamda ijtimoiy mas'uliyat hissining rivojlanishi individuallashuv va ijtimoiylashuv bosqichlarining muhim ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiylashuv va individuallashuvning o'zaro uyg'unlashuvi pedagogik amaliyotda uzviy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Har ikki jarayon bir-birini rivojlantiradi va mazmungan to'ldiradi. Individuallashuv ijtimoiylashuv jarayonining muhim natijalaridan biri hisoblanadi, o'z navbatida, individuallashuvning keyingi rivojlanishi ham ijtimoiylashuv jarayoni orqali amalga oshadi. Ijtimoiylashuv bola shaxsiga jamiyatda qabul qilingan me'yorlar, qadriyatlar va munosabatlarni o'zlashtirish imkonini berib, ular bola uchun muayyan "xulq-atvor shakli" sifatida xizmat qiladi.

Individuallashuv va ijtimoiylashuv jarayonlari o'zaro ta'sir ko'rsatib, bir-birini to'ldiradi va rivojlantiradi. Bola faoliyati ontogenez jarayonida murakkablashib borishi bilan ushbu jarayonlarning mazmuni ham o'zgaradi va rivojlanishning muayyan bosqichlarida ulardan biri nisbatan ustuvor ahamiyat kasb etishi mumkin.

Bolalarning ijtimoiylashuvi ikki asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi (2-rasm).



2-rasm: Bolalarning ijtimoiylashuvi yo'nalishlari

Bu jarayon vositachilar (kattalar) yoki bevosita ishtirokchilar (tengdoshlar) bilan o'zaro munosabatlar orqali ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish natijasida amalga oshadi. Shunday qilib, bolalarning ijtimoiy rivojlanishi kattalar bilan muloqot qilish, tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyat jarayonida ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish hamda atrof-muhitdagi narsa va hodisalar bilan o'zaro munosabatga kirishish orqali yuzaga keladi.

Guruhdagi tarbiyaviy ta'sir bolalarda tengdoshlari orasida o'zini tutish, o'zaro muloqotga kirishish, hamkorlik qilish va ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'zaro hamkorlikka undaydigan, ularning muloqotchanchiligini rivojlantiradigan hamda hissiy jihatdan birlashtiradigan asosiy faoliyat turlaridan biri o'yin faoliyati hisoblanadi. O'yin jarayonida bolalar muayyan ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi, o'zaro munosabat o'rnatadi, kelishish, hamkorlik qilish va umumiy qoidalarga rioya etish tajribasini egallaydi. Shu jihatdan, o'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlovchi muhim pedagogik vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'yin maktabgacha yoshdagi bola uchun muhim faoliyat turi bo'lib, unda erkinlik va mustaqillik hissining shakllanishiga imkon yaratadi. O'yin jarayonida bolada turli harakatlarni amalga oshirish, tengdoshlari va kattalar bilan muloqotga kirishish, o'z xatti-harakatlarini boshqarish, hissiy qulaylikka erishish, bolalar jamoasi-ning faol ishtirokchisiga aylanish hamda erkin muloqot qilishga bo'lgan moyillik rivojlanadi.

Ma'lumki, o'yin faoliyati bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin jarayonida bolaning tasavvur qilish qobiliyati rivojlanadi, xatti-harakatlari va hissiyotlarini ixtiyoriy ravishda boshqarish ko'nikmalari shakllanadi, shuningdek, u o'zaro ta'sir, hamkorlik va bir-birini tushunish tajribasini egalaydi. Bola o'yin davomida turli ijtimoiy rollarni bajarish, belgilangan qoidalarga rioya qilish, o'z manfaatlarini boshqalarning manfaatlarini bilan muvofiqlashtirish hamda turli ijtimoiy vaziyatlarda tegishli xulq-atvor shakllarini namoyon etishni o'rganadi.

Aynan maktabgacha ta'lim jarayonida maqsadli tashkil etilgan o'yin faoliyatining subyektiv qadriyati va obyektiv rivojlantiruvchi imkoniyatlari o'zaro uyg'unlashib, bola hayoti va faoliyatini tashkil etishning eng maqbul shakllaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. O'yin bolaning qiziqish va ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda, uning bilish jarayonlari, kommunikativ qobiliyatlari, emotsional-irodaviy sohasi hamda ijtimoiy kompetensiyalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'yin faoliyati jarayonida bolaning o'zini anglashi hamda o'z xatti-harakatlari va imkoniyatlarini baholash qobiliyati asta-sekin shakllanib boradi. Bunda bolada o'zini tengdoshlari bilan taqqoslash, ularning xatti-harakatlari va faoliyat natijalariga munosabat bildirish hamda o'zining guruhdagi o'rnini anglashga bo'lgan ehtiyoj yuzaga keladi. Ayniqsa, tengdoshlar bilan o'zaro munosabat jarayonida bunday ijtimoiy taqqoslash faollashib, bolaning o'zini o'zi anglashi, o'zini baholashi va "Men" konsepsiyasining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
3. Кривов Ю. И. Проблема социализации подрастающих поколений в зарубежной педагогике: дис. ... канд. пед. наук. – М., 1992. – 20 с.
4. Парсонс Т., Шюц А. Теория социального действия. – М., 2021. – 224 с.
5. Тард Г. Социальная логика. – М., 2014. – 504 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.